

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

BADIYLIK MASALALARI TADQIQIDA OLIM MAHORATI

Xaqqulova Dilshoda Abduvasiyevna

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiylik masalalarida olimning mahorati, qaysi jihatlarda olimning mahorati qanday o'rirlarda namoyon bo'lishi va mavzu yuzasidan dolzarb masalalar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: xorazm adabiy tabiiy muhiti, badiiylik, olimning ijod qirralari, tazkira.

Uzoq o'tmishimiz ijodkorlarining yangi, hali o'rganilmagan jihatlarini tadqiq etish o'ziga xos mas'uliyatli vazifalardan biridir. Bu tadqiqotchidan fundamental bilim, chuqur kuzatish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqara olish barobarida obyektiv munosabat bildirishni talab qiladi. O 'zining ilmiy qarashlari bilan ustoz H. Abdullayev bu sohaga o'tgan asrning 60-yillarida kirib keldi. Olimning ilmiy izlanishlari o'zbek adabiyotshunosligining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri – turkiy xalqlar adabiyoti aloqalari va o'zaro ta'sir masalalarini tadqiq etish bo'lib, Xorazm adabiy muhitining og'zaki va yozma an'analarini, uning namoyondalari ijodini o'rganishda o'ziga xos mifik yaratdi. H. Abdullayev tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda ko'proq xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot haqida yangicha ilmiy fikrlarni kuzatish mumkin. Olim ilmiy tadqiqotlarining asosiy qismi mumtoz adabiyot namoyandalari ijodiyoti tadqiqiga bag'ishlangan. H. Abdullayev Xorazm mumtoz adabiyoti namoyandalari Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Feruz, Komil Xorazmiy, Tabibiy, Bayoni, Avaz kabi

buyuk mutafakkirlar hayoti va ijodi haqida maqolalar e'lon qildi. Olim xorazmlik shoir va olimlarni o'rganish jarayonida Alisher Navoiyning shayxlar, olim va shoirlar haqida qimmatli ma'lumot beruvchi "Nasoyim ul-muhabbat" va "Majolis un-nafois" tazkiralariga murojaat qiladi. Bu asarning oldingi nashrlari sho 'ro davri mafkurasi ta'sirida qisqartirishlar bilan amalgalashirilganligini, natijada xorazmlik shayxlar haqidagi ma'lumotlar ham tushirilib qoldirilganligini ta'kidlaydi. "Nasoyim ul-muhabbat" va "Majolis un-nafois" ning arabiy, forsiy matnlari va ularning tarjimalari hamda izohlari bilan ilk bor to'liq nashr etilgan kitobiga murojaat etib, asarda hayoti va

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

faoliyati yoritilgan shayxlarning 20 nafardan ziyodi asli xorazmlik ekanligini aniqlaydi. Olim shayxlarni ma'lumot xarakteriga ko'ra ikki guruhga ajratadi:

1.Navoiy boshqa asarlarida qisman ma'lumot bergen , lekin bu asarlarida kengroq to 'xtalgan shayxlar (Xoja Abulvafo Xorazmiy, Abdulloh Muborak, shayx Najmiddin Kubro, Xubbi Xoja , Sayid ota va boshqalar).

2.Ilk bor tilga olinib, hayoti va ijodiga oid muhim jihatlari yoritilgan shayxlar (Pahlavon Mahmud,shayx Alovuddin Xorazmiy , Abukhasan Ishqiy, Muhriy Mahmud, Imra'tun Xorazmiya va boshqalar).

H.Abdullayevning ilmiy kuzatishlarida Navoiy har bir shayx ta'rifida ularning ichki qiyofasini ochib beradigan nuqtalarga e'tibor qaratadi. Ularning ibratomuz fazilatlarini qadrlashiga diqqat qiladi. Ulug ' avliyolar haqida fikr yuritganda ilk avliyo ayol - Imra'atun Xorazmiya haqida ham ma'lumot beradi. Tazkirani o'rganish jarayonida olim alohida qiziqish uyg 'otadigan ma'lumotlarga e'tibor qaratadi. Bu ma'lumot Pahlavon Mahmud haqida ekanligini e'tirof etadi.

Olim tadqiqtolarida Pahlavon Mahmudga bag'ishlangan maqolalar ham o 'ziga xos o 'ringa ega. "Filmahmud " dostonida javonmardlik" , "Pahlavon Mahmud ruboiyotida tasavvufiy timsol va istilohlar" , "Pahlavon Mahmudning ruboiy janri rivojidagi o 'rni", "Nasoyim ul-muhabbat"da xorazmlik shayxlar va pahlavon ta'rifi" kabilardir.

Istiqlolgacha bo 'lgan davrda Pahlavon Mahmud asarlari, ayniqsa, ruboiylarini to 'plash, tarjima qilish va o'rganishda zamon mafkurasining ta'siri sezilarli bo 'lib, ular inson hayat falsafasining badiiy talqini ekanligi xolis baholanmadı. So 'nggi yillarda mustaqillik sharofati tufayli Pahlavon Mahmud merosining muayyan qismi nashr etilib, uni tadqiq qilish ishlari boshlandi. H.Abdullayev Pahlavon Mahmud ruboiylari, ularning mazmun-mundarijasi, mavzu doirasi xususida maqolalarida yoritib beradi. Olim "Nasoyim ul-muhabbat"da xorazmlik shayxlar va pahlavon ta'rifi" nomli maqolasida Alisher Navoiyning xorazmlik ko 'plab allomalar haqida qimmatli ma'lumotlar berib o't ganligini ta'kidlaydi. Shular qatorida Pahlavon Mahmud haqida ma'lumotlar batafsil va qimmatliligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, Pahlavon Mahmud Sharqda ma'lum va mashhur tarixiy siymolardan biridir. U O 'rta Osiyo va Eronda keng yoyilgan javonmardiylilik (futuvvat) ta'limotining Xorazmdagi peshvolaridan bo 'lib, faylasuf shoir, tengsiz

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

jahonpahlavon, mohir po ‘stindo‘z, xalq najotkori sifatida nom qozongan. Bu haqdagi ma’lumotlar ko‘plab tarixiy va adabiy manbalarda saqlanib qolgan.

Shunday manbalardan biri “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asaridir.”Shuni aytish kerakki, Abdurahmon Jomiyning ‘Nafahot ul-uns min hazarot il-quds” tazkirasiga ijodiy yondashuv va uni to ‘ldirish asosida yaratilgan 1968-yilgi nashrida ayrim avliyolar, jumladan, Pahlavon Mahmud haqidagi ma’lumotlar tushirilib qoldirilgan edi. Mustaqillik tufayli diniy-ma’rifiy qadriyatlarni kuchaygani bois ushbu asar Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to ‘plamining 17-tomida to ‘liq holda nashr etildi ”[1:22].

770 shayx haqida babs etuvchi ushbu tazkirani o’rganish jarayonida olim Pahlavon Mahmudga oid ma’lumotlarni quyidagi jihatlar bilan izohlaydi:

“1) Garchi Navoiyning Pahlavon Mahmud hayoti va ijodidan yaxshi xabardorligi haqidagi taxminlar ko ‘p bo ‘lsa ham, ularni tasdiqlovchi yozma ma’lumotlar hozirgacha chop etilmaganligi va shu jihatdan bu ma’lumotlar navoiyshunoslikda muhim bir faktga oydinlik kiritgani bilan;

2) Pahlavon Mahmud ellararo “Polvon pir”, “Qitoliy”, “Polvon ota”, “Pahlavon Mahmud Xorazmiy”, “Piryorvali”, “Puryoyvali” kabi nomlar bilan tanilgan. Navoiy esa uning “Pahlavon Mahmud Pakkayor” laqabi bilan atalganini qayd qilganini va bu hol avliyo shoir mashhurligining yana bir qirrasi ekanligi bilan;

3) Tazkirada ko ‘pchilik shayxlarning hayoti va ijodiga oid muhim jihatlar qisqa berilgani holda Xoja Abdulvafo Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy qatorida Pahlavon Mahmud haqidagi ma’lumotlar batafsil bo ‘lib, uning ruboilaridan namunalar va hayotidan lavhalar aks etganligini va bular Navoiyning pahlavon shoirga ixlosi yuksak bo’lganligi bilan;

4) Pahlavon Mahmud asarlari va uning Sharq mamlakatlaridagi sarguzashtlari

haqidagi asarlar, ma’lumotlar Navoiygacha va uning davrida ham ko ‘pchilik orasida keng tarqalganligi va Navoiyning pahlavon, shoir va islomiy e’tiqod targ ‘ibotchisi sifatida shuhrat qozonganligini va bu xususda ko ‘plab rivoyatlar mavjudligini, bulardan shoir yaxshi xabardor bo ‘lganligini ta’kidlaydi.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Navoiy dastlab Pahlavon Mahmudga xos pahlavonlik, valiylik va ijodkorlik sifatlarini ta'kidlab , bularning har birini asoslovchi dalillarni bayon etadi. Maqolada olim Alisher Navoiyning shoir va pahlavon haqidagi fikrlari qimmatli manba sifatida juda ahamiyatli ekanligi , shoir hayoti va ijodining bahsli qirralarini aniqlashga hamda XIV asr Xorazm adabiy muhitini chuqurroq o'rghanishga xizmat qilishiga alohida urg'u beradi.

Shuningdek, olim Navoiy tomonidan Pahlavon Mahmudning shoirlik iqtidoriga, xususan, ruboiyotiga yuksak munosabat bildirganligi va uchta ruboiy mazmunini sharhash orqali donishmand shoirga xos zukkolik, elparvarlik va jismoniy va ruhiy barkamollik kabi fazilatlari ulug 'langanligi haqida fikr bildiradi va Navoiyning diqqatini o'ziga tortgan jihatlardan ruboiyalaridagi Haq (haqiqat) yo 'lida sobitli bo 'lish va kishilarga hojatpeshalik qilish kabilarni alohida ta'kidlaydi:" U shoirning musulmonchilik amallarini so 'zsiz bajarishga undovchi ruboysini quyidagicha talqin etadi:" Islom qoidasi asosida bu ikki bayt Pahlavonningdur: Bir Allohga iyomon keltir, besh vaqt namoz o'qi , o 'ttiz kun ro'za tut , zakot ber, imkon bo 'lsa, yo 'l tepib haj qil.Bas, bizning qo 'limiz sening etagingda, gunoh bandadan, kechirmoq Xudodandir" [2:26]

H. Abdullayev Navoiyning Pahlavon Mahmudga bag 'ishlangan tavsifida diqqatga loyiq jihatni ko 'rsatib beradi. Bu jihat tavsif oxirida Navoiyning boshqa Pahlavon nomining keltirib o 'tishidir. Navoiy yozadi:"Pahlavon Mahmuddan so 'ngra Pahlavon Muhammad Abusaid ham o 'z zamoning benaziri erdi." Shu o 'rinda olim nima sababdan Navoiy o 'z zamondoshi va do 'sti Pahlavon Muhammadni eslashni ma'qul ko 'rganligi xususida savolni o 'rtaga tashlab, shu haqda mulohazalarini bildiradi va Navoiy mantiqan to 'g 'ri yo 'l tutganligini e'tirof etadi..

Olim har ikki pahlavonlardagi fazilatlarni quyidagicha izohlaydi:

Har ikki pirlarning nomidagi o 'xshashligi va jismoniy quvvat va qushtigir(kurashda) shuhrat qozonganligini va Pahlavon Mahmud kuragi yerga tegmagan nomdor pahlavon timsoli bo 'lsa, Pahlavon Muhammad ham , Navoiy ta'rificha ,Hirot chetidagi Ne'matobodda yuzlab pahlavonlarga ustozlik qilgan.Bundan tashqari ijoddha Pahlavonlarning birinchisi "Qitoliy", ikkinchisi "Qushtigir" taxallusini qo 'llagan.Chunki har ikkala so 'z ham jasur,pahlavon ma'nosini anglatadi.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Badiiy ijod har ikkala Pahlavonga xos umumiy jihatlardan biri bo ‘lib, ular asosan fors tilida asarlar bitishgan.Pahlavon Mahmud ijodda ruboiy, Pahlavon Muhammad ijodida boshqa she’riy janrlar ustuvorligi esa har bir tarixiy davrdagi muayyan adabiy an’ana ta’siri va ijodkorning iqtidori bilan izohlanadi.Lekin ezgulik, ilohiy va dunyoviy haqiqat hamda insonni e’zozlash g ‘oyalari har ikkala ijodkorni ham ma’nan yaqinlashtiradi.

Olim Navoiyning Pahlavonlarni “Fayz olamidan ko‘ngilga chosh yetgan “ va “benazir” deya ta’riflaganda ularning shaxs sifatidagi fazilatlarini nazarda tutganligini ,Pahlavon Mahmud umr bo ‘yi o ‘zining “chorlang meni boshingizga kulfat tushsa, darrov madad etgum borib arslon yanglig“ ” degan shiorga amal qilib yashagan bo ‘lsa, Pahlavon Muhammaddan ham el va avom bahramand bo ‘ldi. Xususan, u yordamga muhtojlarga ko‘mak qo‘lini cho‘zadigan, g ‘amlilar dardini bo ‘lishadigan, alamlilar diliga malham bo ‘la oladigan kishi bo ‘lganligi xususida ta’kidlaydi.

H.Abdullayev ilmiy kuzatishlarida har ikki Pahlavonning ichki qiyofasini ochib beradigan nuqtalarga ahamiyat qaratadi.Ulardagi o ‘xshashlik har ikki pahlavonlarning ichki olami bilan ham hamohangdir.Har ikki Pahlavonda ham tantilik, mardlik, ijodkorlik va xalq dardi bilan yashash kabi sifatlar mavjudligini ko ‘rish mumkin.

O‘zbek mumtoz she’riyatida asrlar davomida yashab kelayotgan an’analar talaygina. Olim bir ijodkor tajribasi yoxud muayyan asarlaridan bahramand bo ‘lish , ularni takomillashtirish va mazmunan boyitishni ijodiy izdoshlik orqali namoyon bo‘lishida deb biladi. “Xamsa”chilik an’anasi, o‘zga san’atkorlar asarlariga tatabbu va muxammas bitish yoki ma’qul bo ‘lgan badiiy parchalardan iqtibos olib, davomini yozish shunday izdoshlik shakllaridir. Bu kabi ijodiy izdoshlik mumtoz adabiyotda juda ko ‘p shoirlar ijodida uchraydi.H.Abdullayev Navoiy ijodida ham ko ‘p uchrashi xususida fikr bildiradi: ”Shoir “Majolis un- nafois” tazkirasida ilgari yashagan yoki o ‘ziga zamondosh bo ‘lgan ijodkorlar haqida ma’lumot berar ekan, ular asarlaridan muayyan namunalar keltirib , munosabat bildiradi. Ayniqsa, Jomiy, Lutfiy, Husayn Xorazmiylar ijodidagi fayz va ta’sirni alohida ta’kidlasa, ba’zi shoirlar baytlarini o’z misralari bilan qiyomiga yetkazadi, izdoshlik qiladi”[3:19]

H.Abdullayev bunga misol tariqasida Navoiyga “ham yor (do ‘st) , ham farzand “ bo ‘lgan samarqandlik Mirzo Alibek ismli shoir baytiga izdosh bo

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

‘Iganligini ta’kidlab, Navoiyning Mirzobek haqidagi quyidagi ta’rifini keltirib o’tadi.”Va tab’u fahm va otaru tutardi, bu ikki mulk yigitlari orasida saromadi zamona (davrning pechqadam kishisi) va zehni diqqat va maoniy nuqudidin g ‘aniy erdi va tab’i bu nav’ ta’riflardin mustag ‘niy (ehtiyojsiz), bu matla’ iningdurkim:

Ko ‘zung ne balo qaro bo ‘lubdur,

Kim jonga qaro bo ‘lubtur.

Zulfiqofiyatayndur va qofiyalari tardi aksim, javob aytmoq bu faqir qoshida

maholatdandur.Bu matla’ni faqir tugatib, aning yodgori devonda bitibmen”[3:19]

Olim mulohazalarini davom ettirib, Navoiyning yuqoridagi baytdan ruhlanib, uni davom ettirib, mukammal g‘azal bitganligini va Mirzobek uslubini saqlagan holda mushtarak vazn va ohangda olti bayt qo’shib “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiritganligini ta’kidlaydi:

Majmu’i davoni dard qildi

Dardingki, mango davo bo ‘libdur.

Ishq ichra oning fidosi yuzjon,

Har jonki, sango fido bo ‘libdur.

Begona bo ‘lubdur oshnodin

Begonaga oshna bo ‘lubdur.

To qildi yuzung havosi jonim

Yuz sari ango havo bo ‘lubdur.

Boqiy topar,ulki bo ‘ldi foniy

Rahravga fano baqo bo ‘lubdur.

H.Abdullayev navoiyshunoslikda ushbu g ‘azal ikki shoir ijodiy hamkorligining ibratli namunasi sifatida ko ‘p marta ta’kidlangan bo ‘Isa-da, uning batafsil tahlili ,xususan, Navoiyga xos mahorat va fikriy vorislikdagi beqiyos salohiyat yetarli yoritilmaganligini ta’kilaydi. Haqiqatan ham, Olim Navoiyga aynan Mirzobek bayti ma’qul bo ‘lgani tasodifiy emasligini ikki omil bilan dalillaydi:

1- Navoiy Mirzobekni yuksak ma’rifatli, xushaxloq va pok inson sifatida hurmat qilganligini ta’kidlaydi. Misol tariqasida “Soqiynoma” asarida ham uni

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

tuqqanimdan dog ‘i yuz qatla shafiq deyishi shundan dalolat ekanligini ta’kidlaydi.

2- Mirzobek bayti badiiy nafisligi, ma’no tarovati va uslubiy jozibasi bilan Navoiy diliqa yaqin bo‘lib, ilhom va rag ‘bat bergen ,do ‘sti fikrlarini davom ettirishga undagan.

Olimning ilmiy kuzatishlarida Navoiy Mirzobekning baytidagi o ‘ziga xos tomonlariga ahamiyat qaratganini ko ‘rish mumkin.”Hazrat Navoiy shulardan ikkitasini alohida ta’kidlaydi:birinchisi baytning ziynatli qo ‘shqofiyaligi bo‘lsa, ikkinchisi, tardi aksdir (qofiyalar o ‘rnini almashtirish: balo qaro-qaro balo) .Shu bilan birga baytda ma’naviy san’atning yana bir turi – irsolı masal ham mavjud, ya’ni “ne balo bo’lmoq” iboralarida xalqona hikmatlar ma’nosining biroz o’zgargan shakliga ishorani ko’rish mumkin” [3:20]

H.Abdullayev Mirzobek shohbaytiga Navoiy yana 6 bayt qo ‘shib, matla’dagi fikrni davom ettirib , boyitganligini , bunda Navoiyning poetik mahorati har bir baytdagi hayratomuz ma’no va uslub jilosida she’riy san’atlardan ustalik bilan foydalanganligini ta’kidlaydi. Jumladan, “qora ko ‘z tufayli oshiq qalbini o’rtagan balo-ishq dardi” talqini butun g ‘azal markazida ekanligini, bu ishqning oshiq uchun ayni paytda ham dard , ham davo ekanini tasvirlash tadrij san’ati orqali ifodalanib, poetik ma’no uzluksiz , baytdan baytga teranlashib, quyuqlashib borganligini , lekin dardning aylanishi oson kechmaganligini , oshnolar begona bo ‘lib, begonalar oshno bo ‘lsa ham ,oshiq baribir bu yo ‘lda ishq ichra yuz jonni fido qilganligi xususida fikr bildiradi. Bu o ‘rinda sof tasavvufiy ma’no haqiqatga yetish yo ‘lidagi haqiqiy oshiqlar sadoqati aks etganligini ta’kidlaydi. G ‘azal maqta’sida ma’no tadriji qiyomiga yetib, har qanday “ qaro balo” larga qaramay , Navoiy tuzgan “ishq oyati” ishq ahli orasida navoga aylanganini , bu navoni ilohiy oyat nurlantirib turgan deb biladi. Olimning qarashicha, g ‘azal faqat ma’no-mazmun jihatdangina emas, badiyati bilan ham go ‘zal va mumtozdir. Darhaqiqat, unda shoir tardi aks, tazod, takror, tajnis, muqayyad kabi san’at va vositalarni mahorat bilan qo ‘llaganining guvohi bo ‘lamiz:

Begona bo ‘libdur oshnodin

Begonaga oshno bo ‘libdir.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

H.Abdullayevning ilmiy kuzatishicha, ushbu misralarning barcha qofiyalari bir xil ohangli qofiya bo ‘lganligi, o ‘qimishli qilganligi, ta’sirchanligi va nafisligini oshirganligi Navoiyning tazod san’atidan foydalanishdagi mahoratining g’azalda yorqin aks etganligi, shoir qo ‘llagan “dard” - “davo”, “begona” - “oshno”, ”baqo”-“fano” kabi zid tushunchalarining ishqda sobitlikni kuylashga xizmat qilganligidadir. Oshiqning ruhiy olami va qalb iztiroblari ta’sirini oshirishda turli ma’no qirralarini ifodalovchi tajnis san’atining qo ‘l kelganligiga olim diqqatini qaratadi.

Mirzobek boshlab Navoiy nihoyalagan ushbu g ‘azal keying davr shoirlari ijodida ham o ‘z ta’sirini ko ‘rsatgan va unga muxammaslar bitilgan. Bunga misol tariqasida olim Avaz O’tar yaratgan muxammasni aytish joiz deb biladi.”Bu jihatdan Navoiyga izdoshlik qilgan ,g ‘azaldan fayz olgan shoirlardan biri Avaz (1884-1919) bo ‘ldi. Avaz g ‘azalning ikkinchi va beshinchi baytlaridan boshqa beshta baytiga muxammaslar bitdi va salaflarining fikrlariga hamohanglik qildi. Bu muxammas G ‘ulom Karimovning “O ‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida to ‘liq keltiriladi. Muallif asarni keng tahlil qilishni maqsad etmagan bo ‘lsa ham, uni yuksak baholab,”Avaz O ‘tar ikki ulug ‘ san’atkor tomonidan zo ‘r mahorat bilan yozilgan g’azalga mahorat va san’atda sira qolishmaydigan misralar ilova qilib, ajoyib muxammas yaratdi “,-deb yozadi ”[3:21]. Olim muxammasning yuqoridagi ikki manbadagi matnlarini qiyoslash orqali ularda ayrim farqlar borligini ko ‘rsatadi degan xulosaga keladi.

Muxammasning ikkinchi baytidagi birinchi misra Saylanmada “Kelsa kilay ul sanam liqodin” tarzida yozilganligi bilan “O ‘zbek adabiyoti tarixi”da esa “kelsa” o ‘rnida “kulba” so ‘zi berilganigini , har ikkala holat ham mantiqan nomuvofiq bo ‘lib , originaldan noto‘g‘ri o ‘qilganligini ta’kidlaydi. Bu so ‘zni “gila” deb o ‘qish to‘g‘riliгини ,chunkи “K” va “G” arab alifbosida shaklan bir xil bo‘lib, xatda go ‘zallik uchun tortiladigan chiziq va “sin” harfining “sayfiy” shakli bir xil bo ‘lgani uchun “gila” so‘zi “kelsa” shaklida o ‘qilganligi haqida fikr yuritib, ”sanam liqodin” emas, balki “sanamliqodin” tarzida o ‘qish to‘g‘riliгини ta’kidlaydi.”Sanamliqo” so ‘zi “gulchehra”, ”mohro ‘y”, “mahliqo” tipidagi sifat bo ‘lib, bu o ‘rinda otlashib kelganligiga ishora qiladi.

H.Abdullayev Navoiy g ‘azalidan fayz olgan Avaz muxammasida mazmun uyg ‘unlashib, poetik ma’no yorqinligini va tafakkur uzviy bog ‘liqligini o‘rganishga kuchli e‘tibor qaratish orqali quyidagilarni aniqlaydi:

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

1.Oshiq kechinmalari va ruhiyati haqqoniy ifoda etilgan.
2.Avaz muxammasida ishq yanada bo ‘rttirib berilgan va oshiqning ichki qiyofasini ochib beradigan nuqtalar mavjud.

3. Muxammasning yakunlovchi baytida shogird ustoz tuzgan “ishq oyati” hamohang tarzda o ‘zining ishq rivoyati bilan jo ‘r bo‘lganligi mahorat bilan tasvirlangan.

G ‘azalga Avaz qo ‘shgan misralar Navoiy baytlarining mazmuniga tabiiy ravishda uyg ‘unlashib ketganligini , poetik ma’no yanada yorqin va salmoqli qilib, “qaro” so‘zining jonga balo ekani” ni izohlagani xususida fikr yuritadi:

Dil ishqingga mubtalo bo ‘lubdur,
Ham rasm vafo ango bo ‘lubdur.
Oyini jafo sango bo‘lubdur.

Olim nazarida ofat bu - diliga ishq dardi tushgan oshiq vafo rasmini tutganda , yori jafo qilishni odat etsa, bu oshiq uchun “qaro balo”.Bu fikr g ‘azalning shohbaytiga mantiqan bog ‘lanib, oshiq kechinmalarini, ruhiyatini haqqoniy ifoda etadi deya ta’kidlaydi.

Hamdam Abdullayev ma’shuqa go ‘zalligini Navoiy va Avaz ta’rifidagi quyidagi jihatlarga e’tibor qaratadi va ularni qiyoslaydi:”Navoiy ta’rifidagi “ishq ichra yuz jon fido” bo‘lgan ma’shuqa go‘zalligi Avaz talqinida yanada bo ‘rttirib, uning lablari g‘unchaday xandon, yuzi esa oyday porloqligi ta’kidlanadi va zamona ahli qurban bo ‘lsa, ajab emas,- deydi shoir”¹.

Hijron oshiqqa hamisha jafodir.Lekin haqiqiy oshiq hatto tuman balolarga duchor bo‘lsa ham, vafo va sadoqat rasmini namoyish qilsa, u abadiylikka daxldorligidir .Olim Navoiy baytida keltirilgan purma’no fikrlar Avaz tomonidan yanada to‘ldirilganligini ta’kidlaydi. Navoiyning badiiy kashfiyot darajasiga ko ‘tarilgan ushbu g ‘azal keyinchalik zamonaviy shoirlarga ham ilhom bag ‘ishladi.Shoirlar ushbu g ‘azalni zamonaviy tushunchalar bilan boyitdi. Ijodi hamkorlik adabiyot tarixidagi barhayot an’analardan biriga aylandi.

” Adabiyot xazinasini boyitadigan xazinalardan biri – tarix .Tarix faqat raqamlardan iborat emas,u ajdodlarimizning tushuncha va tasavvurlarini ham o ‘zida mujassam etgan murakkab jarayondir”[5:26] .Hamdam Abdullayev ana shu murakkab jarayonni teran tahlil qilgan yetuk olimdir. Olimning ilm yo ‘lidagi izlanishlari rang-barang va keng ko ‘lamliligi bilan alohida ahamiyatga ega.Uning xalq og ‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va zamonaviy o ‘zbek adabiyot

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

namoyandalari ijodi xususidagi maqolalarida noyob fikrlar mavjud. Olim tadqiqotlarida shoir va olimlar dunyoqarashi va asariga munosabat bildirish bo ‘ladimi, g ‘azal tahlili bo‘ladimi - barchasini aniq dalillar bilan yorqin ko ‘rsatib beradi, manbalarga esa manbashunos nuqtai nazaridan murojaat qiladi.Hamdam Abdullayev kamtarin inson ,u ilm yo ‘lini fidoyilik deb biladi. Uning Xoja Abulvafo Xorazmiy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy,Avaz kabi shoirlarning asarlari xususidagi fikrlari ahamiyatga molikdir. Hamdam Abdullayev mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalari shoir va mutafakkirlar adabiy merosi xususida ko ‘plab tadqiqotlar yaratdi va ilm va fanimizga ulkan hissa qo’shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. Вестник науки и образования, (15-3 (118)), 40-42.
2. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 10-12).
3. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.
4. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.
5. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. Miasto Przyszłości, 35, 388-390.
6. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 292-292.
7. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In INTERNATIONAL

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY,
PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY (pp. 102-106).

8. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. Проблемы науки, 84.

9. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (pp. 60-62).

10. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 121-123).

11. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. Universum: технические науки, (2-1 (95)), 57-59.

12. Сайфуллаева, Н. Б., & Сайдова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. Научный журнал, (6 (40)), 101-102.

13. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 383-388.

14. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.

15. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 138-143.

16. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

17. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL*, 7.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

18. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
19. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
20. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 6(1), 54-68.
21. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, 7(17), 461-466.
22. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
23. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(6), 47-51.
24. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.
25. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, 65(1), 2719-2722.
26. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
27. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 277-284.
28. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(6), 47-51.
29. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lif nazariyasi kafedrasi mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloyeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
30. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI:

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lif nazariyasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).

31. Kozimova, N. A. (2023). Psixologik konsultatsiya bosqichlari. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 90-95.
32. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7, 175-177.
33. Kozimova, N. A. (2024). OTA-ONALIK PSIXOLOGIYASI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 119-125.
34. O'ktam qizi Shukurova, M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 96-99.
35. O'ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 357-360.
36. Shahnoza Rustamovna, N. (2023). UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTION. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 378–382.
37. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. Modern Science and Research, 2(10), 333-336.
38. Ravshnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 356-361.
39. Ravshanovna, X. S. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Лучший инноватор в области науки, 1(1), 814-819.
40. Hojiyeva, N. B. (2023). MODERN METHOD IN TEACHING MOTHER LANGUAGE LESSONS-USING THE CACOGRAPHY METHOD. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 434-439.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 2, 29 Февраль

41. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA NUTQ, MULOQOT O`QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 52–62.
42. Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 494-499.
43. Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 468-472.
44. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.
45. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444>.
46. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 386-388.
47. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 339-344.
48. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020, Volume: 10, Issue: 5.
49. Gafurovna, L. S., & Pirniyazova, N. V. (2023). A System for Developing The Skills of A Future Primary School Teacher in the Use Of Digital Educational Resources. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 258-262.